

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



**FARG‘ONA DAVLAT
UNIVERSITETI**



**“Yangi O‘zbekistonni barpo
etishda san’at va madaniyatni
rivojlantirishdagi muammo va
yechimlar”
mavzusidagi
xalqaro ilmiy - amaliy anjuman
materiallari to‘plami**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**“YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO
ETISHDA SAN’AT VA MADANIYATNI
RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMO VA
YECHIMLAR”**

mavzusidagi
xalqaro ilmiy –amaliy anjuman

M A T E R I A L L A R I

2022 yil

UDK: 78(7.067)

“Yangi O'zbekistonni barpo etishda san'at va madaniyatni rivojlantirishdagi muammo va echimlar”

“Проблемы и решения в развитии искусства и культуры в условиях строения Нового Узбекистана”

“Problems and Solutions in the Development of Art and Culture in the Context of Building of New Uzbekistan”

Ushbu to'plamda 2022 yil 5 oktyabr kuni Farg'ona davlat universiteti San'atshunoslik fakultetida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 martdagi 101-F-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan “Yangi O'zbekistonni barpo etishda san'at va madaniyatni rivojlantirishdagi muammo va echimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiyada ishtirok etgan xorijiy va respublika oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari, soha mutaxassislari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va talabalarning dolzarb mavzulardagi ilmiy maqola va tezislari aks ettirilgan.

Anjuman materiallari san'at va madaniyat sohasida faoliyat yurutuvchi olimlar, pedagog, tadqiqotchi va mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

В данном сборнике содержатся научные статьи и тезисы по актуальным проблемам отечественных и зарубежных учёных, педагогов, специалистов отрасли, докторантов, независимых исследователей, магистрантов и студентов высших учебных заведений, принявших участие в международной научной конференции на тему «Проблемы и решения в развитии искусства и культуры в условиях становления Нового Узбекистана», которая была утверждена распоряжением Кабинета Министров Республики Узбекистан № 101-Ф от 7 марта 2022 года и проведена 5 октября 2022 года на факультете Искусствоведения Ферганского государственного университета.

Материалы конференции предназначены для научных работников, педагогов, исследователей и специалистов, осуществляющих деятельность в сфере искусства и культуры.

This collection contains scientific articles and abstracts on relevant issue of local and foreign scientists, teachers, industry experts, doctoral students, independent researchers, undergraduates and students of higher educational institutions who took part in the international scientific conference on the topic "Problems and Solutions in the Development of Art and Culture in the conditions of the formation of New Uzbekistan", which was approved by the order of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 101-F dated March 7, 2022 and held on October 5, 2022 at the Faculty of Art History of Fergana State University.

The materials of the conference are intended for scientists, teachers, researchers and professionals working in the field of art and culture.

Mas'ul muharrir:

Pedagogika fanlari nomzodi, professor ***Asqarali Sulaymonov***

Ilmiy muharrir:

Pedagogika fanlari doktori, professor ***Saidaxbor Bulatov***

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari doktori, professor ***Turg'unoy Egamberdieva***

NamDU dotsenti,

O'zbekiston badiiy akademiyasi a'zosi ***Botir Jabborov***

Tahrir hay'ati: F.Yuldashev, B.Qurbonova, N.Axmedova, Z.Boboyeva,
I.Yuldashev, R.Soxibov, S.Sulaymanova.

***Anjuman materiallarida yoritilgan ma'lumotlar va chiqarilgan xulosalarning
haqqoniyligiga mualliflar shaxsan javobgardir.***

© Farg'ona davlat universiteti, 2022

© Tasviriy san'at kafedrasi, 2022

© "Super print" bosmaxonasi MCHJ, 2022

**6- SHO'BA. YANGI O'ZBEKISTON MUSIQA VA SAN'AT
SOHASIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR**

**TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLIISH FAOLIYATINI
TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH TEXNOLOGIYALARI**

Baymetov Botir Boltabayevich, *Toshkent viloyati Chirchiq davlat
pedagogika universiteti*

Xusan Xolmuratovich Muratov, *Toshkent viloyati Chirchiq davlat
pedagogika universiteti, Tasviriy san'at kafedrasida dotsent v.b.*

Bugungi kunda bo'lajak pedagog kadrlarning kasb-mahoratini auditoriyalarda akademik o'qish jarayoni bilan bir qatorda ularda mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish texnologiyalarini takomillashtirish, mahoratli pedagoglar sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Muammoni muvafaqiyatli hal qilish uchun esa, mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasini takomillashtirish asnosida mustaqil faoliyat olib borish va ta'limda uzviylik hamda uzluksizlik tamoyillaridan maqsadli foydalanish muhimdir. Mazkur muammoni bir oz kengroq olib qaraydigan bo'lsak, mustaqil ta'lim uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlariga tegishli va ushbu muammo boy tarixga ega ekanligini ishonch bilan aytish mumkin.

O'rta asrlarda faylasuflar F.Rabel, M.Monten, T.Kampanellalar ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilar o'z o'quvchilarini mustaqillika o'rgatish hamda tarbiyalash, ularning o'zlari u yoki bu sohada bilim yo'lini tanlay olishlariga da'vat etganlar. Mashhur olim va nazariyotchilardan A. Disterveg, J.J. Russo, I.G. Pestalotssilarning asarlarida ham yoshlarning mustaqil faoliyatiga taaluqli nazariy masalalar batafsil ko'rib chiqilgan (1;115)

Mustaqil ta'lim olish orqali yetuk mutaxassis bo'lib yetishishning nazariy va amaliy jihatlari bilan ajdodlarimiz ham yosh avlodni kasb-hunar o'rgatish, ustoz-shogird tizimida tarbiyalab, yetuk, tarbiyali, el yurt taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi inson bo'lib yetishishiga katta ahamiyat berishgan. O'rganilayotgan muhim muammo bilan sharqning buyuk ensiklopedik allomalari ham o'zlarining mashhur asarlarida ko'plab ta'riflar berganlar. Abu Ali ibn Sino, Muhammad al Xorazmiy, Ahmad Al-Farg'oniy, Axmad Yassaviy, Yusuf Xos-Hojib, Shayh Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Imom al Buxoriy, Axmad Yugnakiy va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar mehnat qilishni va biron bir kasb-hunarni egallashda ustoz-shogird tizimida faoliyat olib borib, ustozdan o'rnak olgan xolda mustaqil fikrlaydigan va faoliyat olib boradigan shaxs sifatida kamol topish muhimlini ulug'laganlar.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishning pedagogik muammo sifatida ekanligi va uning bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligining muhim omili ekanligi masalalari bilan o'zbek olimlaridan N.A.Muslimov, P.T.Magzumov, U.N.Nishonaliyev, N.Sayidahmedov, A.R.Xodjaboyev, Q.P.Husanboyeva, Safo Matchon, Z.Nishonova, T.Niyazmetova, J.Tolipova, va boshqalar o'z ishlarida tadqiq qilganlar. U.N.Nishonaliyev mehnat ta'limi o'qituvchisini tayyorlashning tarixiy taraqqiyoti va shaxsiy xislatlarini (2;85) N.Sayidaxmedov talabalarni, umumta'lim maktablari o'quvchilarni unumli mehnatga rahbarlikka tayyorlashni (3), Q.P.Husanboyeva odob-axloq va ta'lim berish jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish kabi muammolar ustida tadqiqotlar olib borganlar (4)

Mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonida yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va ta'lim sifatini oshirish masalalariga olimlardan: P.N.Andriyanov, O.B.Berdiyeva, Sh.Yunusovanning o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish, Z.Nishonova, J.Tolipova va N.Xalilovlar talabalar mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish shakllariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqotlarida o'rganganlar.

Taniqli filolog, malakali pedagog-olim Safo Matjonning ilmiy tadqiqot ishi ham biz tadqiq etayotgan masala bo'yicha dolzarb masalalarga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishga qaratilgan. Xususan, unda mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchilarning yozma va og'zaki ijodiy ishlarini tashkil etish masalalari tadqiq qilingan. O'zining mustaqil tafakkuri, nuqtai nazariga ega bo'lish o'quvchining badiiy jihatdan barkamol, ijodkor bo'lishining omili bo'lishiligi aniq misollarda keltirilgan, mustaqil faoliyat yurita olishi ilmiy jihatdan isbotlangan (5). Turli soha pedagog olimlarining ta'kidlashiga ko'ra, mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonini faollashtirish malakali kadrlar tayyorlash sifatini takomillashtirishning asosiy mezonini hisoblanadi. Talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etishda oliy ta'limda faoliyat olib boruvchi barcha professor-o'qituvchilarida kasbiy mahoratining yuqori bo'lishi, talabalarni u yoki bu sohaga qiziqitira olish birinchi galdagi masala bo'lsa, ikkinchi masala talabalarning bo'lajak o'z kasbiga sadoqati, davlat va jamiyat oldidagi burchi, kelajakka intilishi, shu yurt, shu vatanga sodiq xizmat qilishda egallayotgan bilim va malakalarini mustaqil ta'lim faoliyati davomida takomillashtirish muhim masala hisoblanadi. Bunda u faol, ta'limda, kasbiy mahoratini oshirishda yuqori natijalarga erishishga intiluvchi, pedagoglik kasbini tanlash va egallash ishida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi shaxsni shakllantirishda mustaqil ta'lim muhim omil sifatida qaraladi.

Mustaqil ta'lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi

ham talab etiladi. Mustaqil ta'lim shaxsning o'zi tomonidan boshqarilishini e'tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin holda va istagan vaqtda manbalardan o'zi tanlab, maqsad, vosita, mazmun nuqtai nazaridan foydalanishi mumkin. Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu o'qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi ta'sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir (6)

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, uzoq yillar davomida mustaqil ta'lim olish muammosi faqatgina umumta'lim maktablaridagi o'quv jarayoni bilan bog'liq holda hal qilib kelingan. Oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga esa, bu muammolarga ancha keyinroq kirib kela boshlandi.

Biz o'rganayotgan tasviriy san'at fanlarini o'qitish metodikasi nuqtai nazardan esa, bugungi kungacha respublikamizda yetarli darajada fundamental ilmiy tadqiqot ishi olib borilmagan. O'tgan asrning oxirlarida tasviriy va amaliy san'at sohalarida respublikamizning yetakchi olimlaridan B.B.Baymetov⁴², S.S.Bulatov⁴³, va boshqalar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ularning tadqiqotlarida oliy pedagogik ta'lim muassasalarining badiiy grafika fakultetlarida talabalarga tasviriy san'at darslarini tashkil etishda o'zbek milliy xalq amaliy san'ati namunalari foydalanishda mustaqil ta'lim usullarini qo'llash, amaliy san'atning turlarini yoshlarga o'rgatishda ustoz-shogird an'analaridan foydalanish va bo'lajak usta naqqoshlarni malakali mutaxassis sifatida tarbiyalab voyaga yetkazish, shuningdek, umumta'lim maktablari o'quvchilarini tasviriy san'atga o'rgatishda to'garak mashg'ulotlaridan foydalanish va o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda mustaqil ishlarni tashkil etish metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Keyingi vaqtda ko'plab tadqiqotlarda mustaqil ta'limni tashkil etishning intensivlashuvi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilmoqda, bu nafaqat o'quvchi yoki talabalarning faolligini oshirish uchun o'qituvchining faolligini oshirishni, balki sinfdan va auditoriyadan tashqari ishlar sifati va samaradorligini oshirish bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilishni ham o'z ichiga oladi.

Biz o'rganayotgan mazkur tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha talabalarda mustaqil bilim olishini tashkil etish, qiziqishlarini oshirish va qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi omillarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Mazkur muammoni hal etishning muhim omili sifatida tasviriy

⁴² Байметов Б.Б. Основы изучения национального орнамента и методика его обучения на художественно-графических факультетах педагогических институтов (на материале Республики Узбекистан) Диссертация кандидата педагогических наук. – М.: 1992. – 180 б.

² Булатов С.С. Народное декоративно-прикладное искусство Узбекистана в эстетическом воспитании школьников: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – М.: 1993. – 35 б.

san'at fanlaridan ilmiy va ijodiy bilim va malakalarini takomillashtirishni talab etiladi.

Bu ta'rifda faoliyat xususiyatlari: faollik, tizimlilik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik haqida so'z yuritilgan. Biroq mustaqil ta'limning bir jihati sifatida mustaqillik tilga olingan. Mustaqil tafakkur ta'limning bir qismi bo'lishi mumkin. Talabalarning jadval asosida o'tkaziladigan rasmiy darslardan bo'sh vaqtlarida mustaqil ta'lim asosida nazorat qilinadigan akademik mustaqilligini kengaytirish asosiy tendensiya hisoblanadi.

Uslubiy adabiyotlar tahlili mustaqil ta'lim faoliyatining muammolari nazariy jihatdan ancha chuqur ishlab chiqilganligini ko'rsatdi. Biroq, oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar hali yetarli darajada tadqiq qilinmagan va u bugungi kunda yechimlarini topishi kerak bo'lgan sohalardan biridir.

Yuqorida biz talabalarga mustaqil ta'limni tashkil etishning tamoyillari bilan tanishib chiqdik. Ular talabalarni pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlashdagi asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan xolda to'ldirilishi va ta'limning turli bosqichlarida yanada takomillashishi mumkin. Biroq, o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda mustaqil ta'lim tizimining asosilarini egallashlari, bu yo'lda talabalarning tasviriy faoliyatda qanday nazariy qoidalarni o'zlashtirganliklari, turli tasvirlash vositalaridan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirganliklari, ijodiy mustaqillikni rivojlantirib, o'z-o'zlarini tarbiyalashga qodir rassom-o'qituvchi shaxsi sifatida kasbiy shakllanishlari va nazariy va amaliy bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirish imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin. Ishning keyingi bosqichlarida mana shu masalalarga e'tibor qaratiladi.

1. Дистервег Адольф. Избранные педагогические сочинения. М., 1998.

2. Нишоналиев У.Н. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. – Т.: ФАН, 1995. – 85 с.

3. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003 – 172 б.

4. Хусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: Дис. ... пед.фан.док. – Тошкент: ЎзПФТИ, 2004. – 261 б.

5. Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш: Автореф. дис. ... пед.фан.докт. – Т.:1998. – 42 б.

6. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: Фан, 2004. - 128 б.

7.

M U N D A R I J A

KIRISH SO'ZI B.Sh.Shermuhammadov	5
1-SHO'BA. YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA XALQ AMALIY SAN'ATI VA HUNARMANDCHILIGINING O'RNI	
TÜRK MİTOLOJİSİNE GÖRE GEMİLERDE GÖRÜLEN BAZI KUTSAL HAYVANLAR VE KURAKLIK ANTAGONİZMASINDA MOYNAK “GEMİ MÜZESİ” VİZYONU Mustafa Gürbüz BEYDİZ	7
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИ БАРПО ЭТИШДА ИННОВАЦИЯЛАР Саидахбор Собитович Булатов	23
SAMARQAND KASHTACHILIGIGA OID Maxkamova Gulnora Abilkasimovna	37
THE NATIONAL HANDICRAFTS OF BUKHARA Axmedova Nazokat Erkinovna	41
ХАЛҚ АМАЛИЙ САНЪАТИ ВА ҲУНАРМАНДЧИЛИК СОҲАСИНИ РИВОЖИДА КУЛОЛЧИЛИК САНЪАТИНИНГ ЎРНИ Раҳмонов Улуғбек Каримович, Аҳмедбекова Махпузахон Қаххоровна	44
ХИВА “ИЧАН ҚАЛЪА” ДАВЛАТ МУЗЕЙИ АМАЛИЙ САНЪАТ КОЛЛЕКЦИЯЛАРИ Султанова Гулчехра Озодовна	48
ТАЛАБАЛАРНИ ГАНЧ ЎЙМАКОРЛИГИ ТЎГАРАГИ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШГА ТАЙЁРЛАШ МУАММОСИНИНГ ПЕДАГОГИК НАЗАРИЯ Мамаджанова Севара Алиевна	52
ҲУНАРМАНДЧИЛИК ТАРАҚҚИЁТ ВА ФАРОВОНЛИК МАНБАИ Раҳмонов Улуғбек Каримович, Шарипова Гулбаҳор Раҳматжонова	56
BADIIY KULOLCHILIK SAN'ATINING RIVOJLANISHIDA O'RTA OSIYO KULOLCHILIK BUYUMLARINING AHAMIYATI Ma'murov Abdusalom, Anvarov Fazliddin	59
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Ma'murov Abdusalom Anvarovich	61
NAQQOSHLIK MAKTABLARINING RIVOJIGA XISSA QO'SHGAN IJODKORLAR USTALAR Sultonova Maxliyo	64
МАКТАБ ТАЪЛИМИДАН БОШЛАБ УЎИЛ БОЛАЛАРНИ ОИЛАГА ТАЙЁРЛАШДА МИЛИЙ ҲУНАРМАНДЧИЛИКНИ ЎРГАТИШ Арипов Шокиржон Олимович	66
MILLIY HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA AYOLLARNING O'RNI Olimjon Negmatov	69
БЎЛАЖАК АМАЛИЙ САНЪАТ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ Qoraboyev Urolboy Mamadiyorovich	72

TASVIRIY SAN'AT FANINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARI B.M.Qurbonova, Raxmanova Zarnigor Salimjon qizi,	379
ИНТЕРНЕТДА АХБОРОТ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАДАНИЯТИНИ ЎҚУВЧИЛАР ОНГИДА ШАКЛЛАНТИРИШ Файзулла Алимов	382
MUSIQIY-NAZARIY FANLARNI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION YONDASHUV A'zamjonova Nozima Yusufvna, Abdullayeva Maftuna Baxtiyorovna	385
6- SHO'BA. YANGI O'ZBEKISTON MUSIQA VA SAN'AT SOHASIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR	
TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH TYEXNOLOGIYALARI Baymetov Botir Boltabayevich, Xusan Xolmuratovich Muratov	390
YURTIMIZDA MILLIY MUSIQIY MEROSNI ASRASH VA RIVOJLANTIRISHGA DOIR ISLOHOTLAR Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna	394
FARG'ONA VILOYATI MUSIQA MAKTABLARIDAGI BUNYODKORLIK VA REKONSTRUKTSIYA ISHLARINING YO'LGA QO'YILISHI TARIXIDAN S.B.Murtazova, N.A.Akbarova	397
O'ZBEKISTONDA BOLALAR VA SAN'AT MAKTABLARIDA ESTRADA XONANDALIGINI RIVOJLANTIRISH B.Qahhorov	402
ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАДАНИЯТНИНГ РОЛИ Мусурманов Нодирбек Абдуганиевич	405
ZAMONAVIY RANGTASVIRNING FALSAFIY YECHIMI O'ZBEK RASSOMLARI NIGOHIDA O.M.Karimov	409
ОСОБЕННОСТИ МУЗЫКАЛЬНОЙ ТЕРАПИИ Зулайхо Саминжонова	414
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ МУЗЫКИ НА ЧЕЛОВЕКА З.Эргашова	416
MUSIQIY ESHITISH TASAVVURINING O'ZIGA XOSLIGI Mahliyo Baxtiyorovna Yuldasheva	418
МИЛЛИЙ-ХУДУДИЙ МАТЕРИАЛЛАРНИНГ ТАСВИРИЙ САНЪАТ ТАЪЛИМИ ДАРСЛАРИДА ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ Суяров Нодиржон Тахирович Йулдашева Гуллола	420
O'QUVCHILARNING MILLIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA O'ZBEK MUSIQA ADABIYOTI FANINING O'RNI VA AHAMIYATI (Bolalar musiqa va san'at maktablari misolida) Diloromxon Namozova	425

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**“YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA SAN’AT VA
MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMO VA
YECHIMLAR”**

mavzusidagi
xalqaro ilmiy –amaliy anjuman

M A T E R I A L L A R I

5 oktabr 2022 yil

**Sahifalovchilar: Axmedova Nazokat Erkinovna,
Tillaboyeva Muqaddas Sherboyevna,
Arziyeva Nazira Mahmudjon qizi**

«Super Print» MCHJ

Farg‘ona shahar Yuksalish ko‘chasi 81-uy



05.10.2022 yil